

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Muloqotning psixologik tamoyillari xususida	90
M.M.Kaxarova	
Til va nutq tushunchasi	97
M.M.Kaxarova	
Konsept va u bilan bog'liq terminlar xususida.....	103
E.V.Yugay	
Clarity and accessibility as drivers of scientific impact in academic writing.....	107
D.I.Sattarova	
Siyosiy matnlarda intertekstual unsurlar va ularning kommunikativ ahamiyati	112
G.U.Yuldasheva	
Ingliz va o'zbek tilshunosligida "Baxt" va "Baxtsizlik" konseptlarining o'rganilishi.....	117
G.U.Maxmudjonova	
O'zbek tilida orfoepik me'yorlarni avtomatlashtirishning muammolari va yechimlari	123
Sh.R.Askerova	
Metaphor and its types in modern french	127
H.U.Davlatova	
Tilshunoslikda nutq ontogenezining psixolingvistik tadqiqi va uning ilmiy-nazariy asoslari	131
Z.S.Kenjaye	
Boysun tumani oronimik tizimida zoonim komponentli oronimlar	138
A.R.Kosimov	
Критическое отношение к собственной педагогической практике.....	143
M.Ш.Бахриддинова	
Антропоцентрический подход в переводе и влияние когнитивных и культурных факторов на восприятие	146
Ч.Х.Чамолов	
Иртиботи забонҳои тоҷикӣ ва ӯзбекӣ	151
X.P.Murtozoev, M.A.Ubaydullozoda	
Ҳодисаи савтии ҷойивазкунии овозҳо дар ашъори намояндагони сабки Хуросонии адабиёти тоҷику форс.....	158
X.J.Sayfullayev, F.M.Ulasheva	
Frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari	164
S.A.Toshmatova	
Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanida milliylik ifodasi: realiyalar va ularning inglizcha tarjimadagi talqini	171
S.M.Muminov, Sh.D.Muxtorova	
Data jurnalistikasi va uning ma'lumotlar tahlilida tutgan o'rni (internet nashrlari misolida)	176
U.To'rayeva	
O'zbek tili grammatikasining zamonaviy o'qitilish usullari: muammo va yechimlar.....	182
H.U.Davlatova	
Nutq ontogenezining lingvistik tadqiqi	187
I.V.Xoldarova	
Raqamli texnologiyalar asosida boshlang'ich ta'limda ona tili o'qitish metodlari	195
N.ShAbdullayeva	
Teaching the use of thesauruses to english as a foreign language learners: pedagogical approaches and lexical development	198
M.O.Obilov	
Kognitiv sxemalar va freymalar: akademik matn yaratishda shaxsiy tajribaning roli	207
N.Sh.Abdullayeva	
Innovative approaches to teaching english as a foreign language: contemporary methodologies and digital integration	212
Z.A.Akbarova	
Inson dunyo qarashi olamni modellashtiruvchi sifatida	219
I.B.Xabibullayev	
Said Ahmadning "Azroil o'tgan yo'llarda" hikoyasidagi oilaviy munosabatlarda psixofiziologik holat tasviri	222
M.X.Hakimov	
Implitsitlik kategoriyasi xususida	227



UO'K: 81'42

KONSEPT VA U BILAN BOG'LIQ TERMINLAR XUSUSIDA

ON THE CONCEPT AND RELATED TERMS

О КОНЦЕПТЕ И СВЯЗАННЫХ С НИМ ТЕРМИНАХ

Kaxarova Mavlyuda Mukaramovna 
filologiya fanlari nomzodi, professor

Annotatsiya

Ushbu maqolada konsept tushunchasining lingvistik mazmun-mohiyati va unga aloqador atamalar tizimi (konseptosfera, nominativ maydon, nominativ zichlik va boshqalar) tahlil qilingan. Olib borilgan tadqiqot doirasida konseptning turli ilmiy talqinlari, kognitiv hamda lingvokulturologik yo'nalishlardagi o'rni va o'zbek tilshunosligida qo'llanilish xususiyatlari yoritiladi. Tahlil natijalariga ko'ra, konsept ko'p qirrali mental kategoriya sifatida til va tafakkur hamda til va madaniyat o'zaro aloqalarini tadqiq etishda muhim nazariy vosita ekani isbotlangan.

Abstract

This article analyzes the linguistic essence of the concept notion and the system of related terms (conceptosphere, nominative field, nominative density, etc.). Within the framework of the conducted research, various scientific interpretations of the concept, its role in cognitive and linguocultural approaches, and its usage in Uzbek linguistics are elucidated. The results of the analysis prove that the concept, as a multifaceted mental category, serves as an important theoretical tool in studying the interrelation between language and thought, as well as between language and culture.

Аннотация

В данной статье проанализирована лингвистическая сущность понятия «концепт» и система связанных с ним терминов (концептосфера, номинативное поле, номинативная плотность и др.). В рамках проведённого исследования освещаются различные научные трактовки концепта, его роль в когнитивном и лингвокультурологическом направлениях, а также особенности его употребления в узбекском языкознании. По результатам анализа доказано, что концепт, как многогранная ментальная категория, является важным теоретическим инструментом при изучении взаимосвязей языка и мышления, а также языка и культуры.

Kalit so'zlar: konsept, konseptosfera, nominativ maydon, nominativ zichlik, kognitiv interpretatsiya, obrazli uzv, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, psixolingvistika.

Key words: concept, conceptosphere, nominative field, nominative density, cognitive interpretation, figurative component, cognitive linguistics, linguoculturology, psycholinguistics.

Ключевые слова: концепт, концептосфера, номинативное поле, номинативная плотность, когнитивная интерпретация, образный компонент, когнитивная лингвистика, лингвокультурология, психолингвистика.

KIRISH

Jahon lingvistikasida antropotsentrik paradigma ustuvor bo'lib borishi natijasida ko'plab yangi tushunchalar va atamalar ilmiy muomalaga kirib keldi. Xususan, kognitiv tilshunoslik hamda lingvokulturologiya sohalarida faol qo'llanayotgan muhim nazariy kategoriya sifatida konsept atamasini qayd etish mumkin. Konsept tushunchasi ilgari lingvistik manbalarda umumiy holda tushuncha termini bilan ifodalangan bo'lsa [3; 36], hozirgi davrga kelib konsept va tushuncha farqli ma'nolarni anglatadi.

Ilk bor 1928-yilda S.A.Askoldov tomonidan fan doirasida qo'llangan konsept termini keyinchalik turli nazariy yondashuvlar rivojiga qarab yangicha talqin qilindi [1; 270]. Masalan, konseptning lotincha conceptus so'zidan kelib chiqqan etimologik ma'nosi "tushuncha" bo'lib, zamonaviy izohda bu atama mazmundor mental birlikni anglatadi. Yu.S.Stepanov konseptni ikki tomonlama xususiyatga ega fenomen sifatida ko'rsatib, bir tomondan, konsept individual ong'dagi bilish natijasi bo'lsa, ikkinchi tomondan, u xalqning madaniy tajribasini umimlashtirgan tushuncha shaklida namoyon bo'ladi [2].

Konseptga taalluqli ilk nazariy mulohazalar G'arb va rus tilshunosligida XX asr boshlarida paydo bo'lgan, ammo faqat XX asr oxirlariga kelib bu termin lingvistika tadqiqotlarida alohida ahamiyat kasb eta boshlagan [3]. G'arb tilshunosligida 1980-yillardan boshlab J.Cheyf, R.Jackendoff, J.Lakoff kabi olimlar asarlarida "konsept" atamasi qo'llanila boshlagani ham konseptual yondashuvning rivojiga turtki bo'ldi [9; 1225]. Ayni paytda konsept atamasining ilmiy izohi tilshunoslikning qator yo'nalishlarida faol rivojlandi. Jumladan, N.Yu. Shvedova konseptni shunchaki tushuncha emas, balki xalq hayoti va ongidagi muhim moddiy-ma'naviy tajribalarni o'zida mujassam etuvchi ko'p qirrali mazmun sifatida tariflaydi [4; 603].

O'zbek tilshunosligida ham konsept terminini izohlash va undan foydalanish bo'yicha dastlabki ilmiy yondashuvlar 1990-yillardan boshlab shakllandi. Xususan, N.Mahmudov [5; 9], Sh.Safarov [7; 91] va A.E.Mamatov [8; 215] kabi tilshunoslar asarlarida konseptga doir muhim fikrlar ifodalangan. Ushbu maqolada konsept tushunchasining mazmun-mohiyati va unga aloqador lingvistik terminlar – konseptosfera, konseptning nominativ maydoni, nominativ zichligi, konseptning kognitiv hamda interpretativ jihatlar va obrazli tarkibi – ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadqiqotda ta'rifiy-tahliliy va qiyosiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, "konsept" atamasiga oid ilmiy adabiyotlarda berilgan ta'riflar to'plandi va ularning mazmun jihatdan tahlili amalga oshirildi. Turli manbalardagi yondashuvlar qiyoslanib, konsept tushunchasining lingvistik xususiyatlarini ochib berishga e'tibor qaratildi. Xususan, xorijiy olimlarning konseptga doir nazariy izohlari (S.A.Askoldov, Yu.S.Stepanov, N.Yu.Shvedova va boshq.) hamda o'zbek tilshunoslari fikrlari (N.Mahmudov, Sh.Safarov, A.E.Mamatov) o'zaro taqqoslab o'rganildi. Tadqiqot manbalari sifatida konseptga oid 8 ta ilmiy manba (xorijiy va mahalliy) tanlab olinib, ulardagi ta'rif va yondashuvlar qiyosiy tahlildan o'tkazildi. Ushbu maqola doirasida mazkur atamaning turli talqinlari tahlil qilinib, konseptning umumiy va o'ziga xos jihatlarini yoritishga xarakteristik xarakteristik qilinadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

O'tkazilgan tahlillar konsept atamasining mazmunini aniqroq belgilash imkonini berdi. Xususan, konsept – inson tafakkurida ma'lum bir narsa yoki hodisa haqida shakllangan bilimlar majmuini ifodalovchi diskret mental birlikdir. U o'z tarkibida keng qamrovli ensiklopedik ma'lumotlarni hamda subyektiv va ijtimoiy tajribani mujassamlashtiradi. Konsept tarkibida nafaqat aniq tushuncha (mantiqiy mazmun yadrosi), balki obrazli tasavvur va baholash munosabati kabi qatlamlar ham mavjud bo'lib, shu bois u ko'p qirrali tuzilishga ega [2; 42].

Jumladan, "Kognitiv atamalar lug'ati"da konsept inson tafakkuridagi aqliy va ruhiy resurslarning bilim va tajriba shaklida aks etishiga xizmat qiluvchi tushuncha sifatida izohlanadi [9].

Tadqiqot jarayonida konsept tushunchasining turli ilmiy yo'nalishlar doirasidagi talqinlari qiyosiy tahlil qilindi. Kognitiv lingvistikada konsept til birliklari orqali inson ongidagi bilimlar tizimini ifodalovchi vosita sifatida qaratiladi. Lingvokulturologiyada esa konsept millatning madaniy-intellektual boyligini aks ettiruvchi asosiy birlik sifatida talqin etiladi. Psixolingvistika nuqtayi nazaridan konsept nutq faoliyati jarayonida yuzaga keladigan harakatchan (dinamik) ruhiy tuzilma sifatida o'rganiladi. Bu turli yondashuvlar konsept tushunchasining qamrov doirasi keng hamda ko'p jihatli ekanini ko'rsatadi.

Shuningdek, konsept bilan bog'liq quyidagi lingvistik terminlar mazmuni aniqlashtirildi:

Konseptosfera – muayyan milliy madaniyat uchun xarakterli bo'lgan asosiy konseptlar yig'indisi [10; 56].

Konseptning nominativ maydoni – mazkur konseptga aloqador so'z va atamalar (uning nomlari va lingvistik ifodalari) majmui.

Konseptning nominativ zichligi – konseptning leksik-semantik jihatdan qay darajada boy va turfa ekani, ya'ni uni ifodalovchi nom birliklar soni va ulanish ko'lamining ko'rinishi.

Konseptning kognitiv interpretatsiyasi – konsept mazmunining kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan talqini, ya'ni uning inson ongida qanday konseptual tuzilma sifatida shakllanishidir.

Konseptning interpretatsiya maydoni – konseptning turli nutqiy va madaniy kontekstlarda olishi mumkin bo'lgan ma'no va talqinlar doirasidir.

Konseptning obrazli uzvi – konseptning tarkibidagi metaforik, obrazli-majoziy qism bo'lib, u konseptning emosional-estetik jihatlarini ifodalaydi.

TILSHUNOSLIK

Natijalar tahlili konsept tushunchasining zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda naqadar muhim o'rin tutishini tasdiqlaydi. Darhaqiqat, konsept lingvokulturologiya yo'nalishida eng faol o'rganilayotgan birliklardan biri sanaladi [5; 9]. Xuddi shuningdek, konsept kognitiv tilshunoslik tadqiqotlarining ham markaziy kategoriyasidir. Sh.S. Safarovning fikricha, "kognitiv tilshunoslikning vazifasi til yordamida bilim olish va saqlash, tilni amalda qo'llash hamda uzatish jarayonlarini chuqur tadqiq etishdir" [7; 91]. A.E.Mamatov esa tilga kognitiv yondashuvni "til shaklining inson ongi va tafakkuridagi in'ikosi sifatida namoyon bo'lishi" deb baholaydi [8; 215]. Bu holat konsept atamasi aynan til va tafakkur tutashgan chegara nuqtalarni o'rganishda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

Konseptning murakkab, ko'p qirrali hodisa ekani bois, uni tasniflash va turkumlarga ajratish yuzasidan turli yondashuvlar mavjud. Jumladan, N.N.Boldirev, S.G.Vorqachev, G.G.Slishkin, V.I.Karasik, A.P.Babushkin kabi olimlar konseptlarni turli mezonlar asosida turlarga ajratganliklari ma'lum [11; 12]. Bunday turlicha yondashuvlar konsept tushunchasining umumiylik bilan birga har bir ilmiy maktab yoki yo'nalishda o'z talqini va xususiyatlariga ega ekanini anglatadi. Masalan, A.Ya. Gurevich madaniyatga oid konseptlarni "fazoviy-falsafiy" va "ijtimoiy" kategoriyalarga ajratgan bo'lsa, V.A. Maslova ularga "milliy-madaniy kategoriya"ni ham alohida turkum sifatida kiritadi [6; 51]. Boshqacha aytganda, konsept mohiyatan umumlingvistik kategoriya bo'lsa-da, uning aniq tavsifi va tasnifi tadqiqot maqsadiga qarab o'zgarishi mumkin.

Masalan, "uy" konsepti o'zbek xalq ongida oilaviy makon tushunchasi bilan chambarchas bog'lanib, hovli, xonadon, oila kabi leksik birliklar orqali ifodalanadi. Ushbu konsept tarkibida mehribonlik uyi, dam olish uyi, madaniyat uyi kabi birikmalar ham shakllangan. Shu bilan birga, "uy ichi" (oila a'zolari), "uyi buzilmoq" (oilasi buzilmoq, ajralish) va "uyi kuymoq" (xonavayron bo'lmoq) kabi frazeologizmlar mazkur konseptning ko'chma ma'no doirasini tashkil etadi [10; 29]. Xuddi shuningdek, o'zbek madaniyatida non konsepti muqaddas ne'mat, asosiy oziq-ovqat ramzi sifatida qaralsa, ayrim sharq xalqlarida (masalan, koreys va yapon madaniyatida) guruch shunday o'rinni egallaydi [10; 29]. Bu misollar konseptlarning milliy-madaniy qirralarini yorqin namoyon etadi.

Yuqoridagi mulohazalardan ko'rinadiki, konsept nafaqat nazariy tilshunoslik, balki amaliy tadqiqotlar uchun ham qulay ilmiy vosita sifatida shakllandi. Til va madaniyat hamda til va tafakkur o'zaro aloqasini o'rganishda konseptga tayanuvchi yondashuvlar (masalan, milliy mentalitetni til vositasida tadqiq etish) samarali natijalar bermiqda. Zamonaviy o'zbek tilshunosligida ham "konsept" atamasi mustahkam o'rin egalladi va turli til qatlamlarini (leksik-semantik, pragmatik, poetik va boshq.) tahlil etishda keng qo'llanilmoqda. Kelgusidagi izlanishlarda konsept tushunchasini yanada chuqurroq o'rganish orqali til va tafakkurning turli ko'rinishlari, xususan, milliy va umumbashariy qarashlar uyg'unligi hamda farqlari haqida yangi ilmiy xulosalar chiqarilishi shubhasiz.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, "konsept" tushunchasi tilshunoslikda shakllangan yangi ilmiy paradigmalar mahsuli sifatida nazariy va amaliy ahamiyatga ega muhim kategoriya sifatida tan olindi. Ushbu tadqiqot doirasida konsept atamasining mazmuni va qo'llanilish doirasi tahlil qilinib, uning ko'p qirrali mohiyati yoritildi. Konsept – bu til va tafakkur kesishgan nuqtada turuvchi, inson tajribasini lingvistik shaklda aks ettiruvchi mental tuzilma ekani tasdiqlandi. Shuningdek, konsept bilan chambarchas bog'liq bo'lgan atamalar tizimi (konseptosfera, nominativ maydon, nominativ zichlik va boshq.) mavjud bo'lib, ular konsept haqidagi tasavvurlarni yanada to'ldiradi.

Yangi ilmiy yondashuvlar va tadqiqotlar konsept nazariyasini boyitib, til tizimi hamda unda aks etuvchi madaniy va kognitiv jarayonlarni chuqurroq anglashga xizmat qilmoqda. O'zbek tilshunosligida konsept fenomenini o'rganish milliy tafakkur va til birligining o'ziga xos tomonlarini kashf etishda muhim omil bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность: От теории словесности к структуре текста. – М.: Academia, 1997. – С. 267-280.
2. Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. – М.: Академический проект, 2004.
3. Демьянков В.З. Понятие и концепт в художественной литературе и в научном языке // Вопросы филологии. – 2001. – №1. – С. 35-47.
4. Шведова Н.Ю. Избранные труды. – М., 2005.

5. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab... // O'zbek tili va adabiyoti. – 2012. – №5. – B. 9.
6. Маслова В.А. Лингвокультурология: учебное пособие. – М.: Академия, 2001.
7. Safarov Sh.S. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006.
8. Mamatov A.E. Tilga kognitiv yondashuvning mohiyati nimada? // Tilshunoslikning dolzarb masalalari (Prof. A. Nurmonov tavalludining 70 yilligiga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjuman materiallari). – Andijon, 2012. – B. 212-219.
9. Abduraimova B.I. Kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatda konsept tushunchasi // Scientific progress. – 2022. – Vol.3. – Iss.2. – B.1223-1228.
10. Xudayberganova Z., Usmonova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy masalalari moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – Toshkent, 2016. – B. 56.
11. Xudoyberganova D. Konsept va u bilan bog'liq terminlar xususida // Ilmiy-metodik elektron jurnal. Til va adabiyot.uz. – 2023. 11-son. – B.12-13